

ISSN: 2181-4066

DOI Journal 10.56017/2181-4066

**VOLUME I, ISSUE 10**



# JOURNAL OF PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

**ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР**

**ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ  
ИССЛЕДОВАНИЯ**



IMFAKTOR

**OCTOBER | 2023**

ISSN: 2181-4066  
DOI Journal 10.56017/2181-4066

# ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

I-ЖИЛД, 10-СОН

## ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ-I, НОМЕР-10

## PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

VOLUME-I, ISSUE-10

ТОШКЕНТ - 2023

# ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ | PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

№ 10 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4066-2023-10>

## Бош муҳаррир:

Нишонова З.

– психология фанлари доктори, профессор

## Масъул муҳаррир:

Давлатов Ойбек Ғ.

– педагогика ф.б.ф.д. (PhD)

## Таҳририят аъзолари:

1. Юсупова Хабиба Ирискуловна – педагогика ф.б.ф.д. (PhD)
2. Олимов Лазиз Ярашович – психология ф.б.ф.д. (PhD), доцент
3. Элов Зиёдулло Сатторович – психология ф.б.ф.д. (PhD)
4. Ганжиев Феруз Фурқатович – психология ф.б.ф.д. (PhD)
5. Мусаева Мухаббат Эшбаевна – педагогика ф.б.ф.д. (PhD), доцент
6. Умаров Баҳром Норбоевич – педагогика ф.б.ф.д. (PhD)
7. Орипова Раънохон Иброхимовна – педагогика фанлари номзоди, доцент
8. Ўринова Феруза Ўлжаевна – педагогика фанлари номзоди, доцент
9. Ниёзова Лутфия Худайбергандовна – дефектолог - эксперт
10. Салиева Дилором Абдуллаевна – психология фанлари номзоди
11. Останов Шухрат Шарифович – психология ф.б.ф.д. (PhD)
12. Рустамов Шавкат Шухратович – психология ф.б.ф.д. (PhD)
13. Халлокова Максудахон Эргашевна – педагогика ф.б.ф.д. (PhD)
14. Исмаилова Раъно Нураевна – психология ф.б.ф.д. (PhD), доцент
15. Саримова Дилдора Соаталиевна – педагогика ф.б.ф.д. (PhD), доцент
16. Улуғова Шахлола Муслиддиновна – психология фанлари номзоди, доцент
17. Махмудова Зулфия Мехмоновна – психология ф.б.ф.д. (PhD), доцент
18. Худайбергандов Шухрат Шавкат ўғли – педагогика ф.б.ф.д. (PhD)
19. Исматова Дилафруз Тўймуратовна – психология ф.б.ф.д. (PhD)

“Педагогик ва психологик тадқиқотлар” журнали 2022 йил 22 декабрь кунини **№ 054834**-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган. Мазкур журнал **6** та халқаро маълумотлар базаларида индексланган бўлиб, жорий йил учун **UIF 2023 = 8.2** “**импакт-фактор**” кўрсаткичига эга.

Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги ҳузуридаги Олий аттестация комиссиясининг 2023 йил 24 июлдаги 01-02/1199-сонли хатига мувофиқ ушбу журналда чоп этилган мақолалар **хорижий мақолалар сифатида тан олинади**.

Саҳифаловчи\Page Maker\Верстка: Абдурахмон Хасанов

Таҳририят манзили: Тошкент шаҳар, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-уй. Почта индекси 100152. Веб-сайт: [www.imfaktor.uz/com](http://www.imfaktor.uz/com)

Телефон номер: +99894-410 11 55, E-mail: [tahririyat@imfaktor.uz](mailto:tahririyat@imfaktor.uz)

© “ИМФАКТОР Pages” илмий нашриёти, 2023 йил.

© Муаллифлар жамоаси, 2023 йил.

# ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ | PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

**MAMADIYEVA Shoxsanamxon Hamdamovna**

*Marg'ilon shahar*

*19- sonli maktabgacha ta'lim tashkiloti*

*direktori*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10027122>

## МАКТАБГАЧА YOSHIDAGI BOLALAR TA'LIMINI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION TEXNOLOGIYALARI

### ANNOTATSIYA

Yangicha ijtimoiy sharoitda maktabgacha yoshidagi bolalar ta'limini rivojlantirishning hozirgi bosqichida asosiy e'tibor bolaning shaxsiyatini har tomonlama rivojlantirishga qaratilishi kerak bo'ladi. Bunda qiziquvchanlik, maqsadlilik, mustaqillik, mas'uliyat, ijodkorlik, yosh avlodning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvini ta'minlanish orqali jamiyat va davlatlarning raqobatbardoshligini ta'minlashga erishiladi.

Mazkur maqolada yangicha ijtimoiy sharoitda maktabgacha yoshidagi bolalar ta'limini rivojlantirishning hozirgi bosqichida asosiy e'tibor innovatsion texnologiyalar va ularni tashkil etish samaradorligini oshirish muammolari hamda ularga qaratilgan echimlar yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** davlat dasturi, ta'lim dasturi, "Bolalik texnologiyalari", STEAM, Kindergarten, xavfsizlik muhandisligi asoslari, Dyu texnologiyasi". Fatsilitator ta'lim, TRIZ, Loyihali ta'lim texnologiyasi, tizimli, manzilli, maqsadli, Yangi Uyg'onish davri, aql markazlari.

## ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ РАЗВИТИЯ ОБРАЗОВАНИЯ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНИКА

### АННОТАЦИЯ

На современном этапе развития образования дошкольников в новых социальных условиях основное внимание должно быть сосредоточено на всестороннем развитии личности ребенка. Это достигается путем обеспечения любознательности, целеустремленности, самостоятельности, ответственности, креативности, успешной социализации молодого поколения, обеспечения конкурентоспособности общества и страны. В данной статье на современном этапе развития образования дошкольников в новых социальных условиях основное внимание уделяется инновационным технологиям и проблемам повышения эффективности их организации, а также направленным на них решениям.

**Ключевые слова:** государственная программа, образовательная программа, «Технологии детства», STEAM, Детский сад, основы техники безопасности, Росистая технология. Обучение фасилитаторов, ТРИЗ, Проектные образовательные технологии, системные, целенаправленные, целенаправленные, Новое Возрождение, интеллектуальные центры.

## INNOVATIVE TECHNOLOGIES OF EDUCATION DEVELOPMENT OF SCHOOL CHILDREN

### ANNOTATION

At the current stage of the development of preschool children's education in the new social conditions, the main attention should be focused on the comprehensive development of the child's personality. It is achieved by ensuring curiosity, purposefulness, independence, responsibility, creativity, successful socialization of the young generation, and ensuring the competitiveness of society and countries. In this article, at the current stage of the development of preschool children's education in the new social conditions, the main focus is on innovative technologies and the problems of increasing the efficiency of their organization, as well as solutions aimed at them.

**Key words:** state program, educational program, "Childhood technologies", STEAM, Kindergarten, fundamentals of safety engineering, Dew technology. Facilitator education, TRIZ, Project-based educational technology, systematic, targeted, purposeful, New Renaissance, intellectual centers.

Bugungi kunda dunyo miqyosida raqobat keskinlashib borayotgan hozirgi murakkab davrda mamlakatimizda ilm-fan yutuqlari, yuqori texnologiyalar asosida modernizatsiya qilinib yangilanmoqda. Bu ishlarning barchasidan davlatimizning yagona maqsadi - maktabgacha ta'lim va maktab ta'limi, oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimi hamda ilmiy-madaniy muassasalarni Uchinchi Renessansning to'rt uzviy xalqasiga, bog'cha tarbiyachisi, maktab muallimi, professor- o'qituvchilar va ilmiy –ijodiy ziyollilarimizni esa Yangi Uyg'onish davrining to'rt tayanch ustuniga aylantirishga harakat qilinmoqda.

Mamlakatimizda bir-biri bilan chambarchas bog'langan uzluksiz ta'limning barcha bo'g'inlarida keng ko'lamli ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Fikrimizning dalili sifatida Bu borada so'ngi besh yilda Muhtaram Prezidentimizning shaxsiy tashabbuslari bilan maktabgacha ta'lim sohasida ham bir qancha islohotlar amalga oshirildi. Bularning barchasi bolalar va tarbiyachi pedagoglar manfaatlarini yo'lida xizmat qilishga, shuningdek, maktabgacha ta'lim sifatini tizimli, manzilli, maqsadli yaxshilashga qaratilgan. Bularga misol qilib, 2018 yilda "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi, "Maktabgacha ta'lim tarbiya to'g'risida"gi Qonun (2019 yil 16 dekabr, O'RQ -595-son), "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida" (2020-yil 22-dekabrda 802-son), "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi (takomillashtirilgan) (2022yil 4 fevral), EMIS elektron tizimi (2022yil) yo'lga qo'yildi. Maktabgacha ta'lim tizimi oldiga qo'yiladigan davlat talablari, ta'lim-tarbiya dasturlari ilg'or xorijiy tajriba asosida takomillashtiriladi. Ushbu dasturlar bolalarga o'qish va yozishni turli o'yinlar orqali o'rgatish, ularning zerikmasligi, bezor bo'limasligi, aksincha, bog'chaga xursand bo'lib boradigan bo'lishiga xizmat qiladi.

Yangicha ijtimoiy sharoitda maktabgacha yoshidagi bolalar ta'limini rivojlantirishning hozirgi bosqichida asosiy e'tibor bolaning shaxsiyatini har tomonlama rivojlantirishga qaratilishi kerak bo'ladi. Bunda qiziquvchanlik, maqsadlilik, mustaqillik, mas'uliyat, ijodkorlik, yosh avlodning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvini ta'minlanish orqali jamiyat va davlatlarning raqobatbardoshligini ta'minlashga erishiladi.

Zeroki, Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev o'zining "Yangi O'zbekiston strategiyasi" nomli kitobida - "Bugun hayot yangicha fikrlash va ishlash, milliy "aql markazlari"mizni shakllantirishni talab etmoqda" deb alohida ta'kidlab o'tganlar.

Haqiqatdan ham, biz yaratishimiz kerak bo'lgan milliy aql markazlarimizda bolalar o'rganishi kerak bo'lgan ko'nikmalarga tanqidiy fikrlash, ijodiy fikrlash (ijodkorlik), hamkorlik, muloqot, jismoniy bilim, mantiqiy matematika va ijtimoiylashuv kabi ko'nikmalar kiradi. Bolalarda bu ko'nikmalarni tarkib topdirish uchun esa, albatta, maktabgacha ta'limga yangicha yondoshuvga asoslangan kontseptsiyalarni joriy etish zaruriyati tug'iladi.

Buning uchun esa bizda innovatsion texnologiyalarni maktabgacha ta'limga tatbiq etish va samarali yo'llarini izlab topish muammosi yuzaga keladi [1].

Innovatsion ta'lim kontseptsiyasi bolalarni texnik jihatdan rivojlangan dunyoga professional darajada tayyorlaydi.

Maktabgacha ta'limdagi innovatsion texnologiyalar yapon olimi Masaru Ibuka metodikasiga tayanadi. Bu metodikaning mazmuni "Har bir bolada daho yashirin" deb nomlanadi. Innovatsion texnologiyalarning maqsadi shaxsni erta rivojlanish zonasida qobiliyatini yuzaga chiqarish orqali faoliyatga tayyorlash hisoblanadi. Miyaning aqliy salohiyati ilk yoshda yuqori sur'atda bo'lishini anglagan holda bilimni mukammal pozitsiya emas, oddiylikdan yaralgan tushunchalar ekanligini tarkib toptirish nazarda tutiladi. Bunday yondashuv bolalar uchun ko'plab savollardan iborat dunyo sirlarini ochilishiga va har bir bolaning erkin tarzda ichki motivlarini amaliyotga olib chiqish imkoniyatini beradi. Alohida xususiyatli va iqtidorli bolalar salmog'ining ko'payishiga xizmat qiladi. Mashg'ulotlar aniq bola iqtidori bilan bog'liq yo'nalishda bo'lganligi bois qiziqishning kamayishi, befarq va zerikarli muhitdan bolani ozod qiladi [2].

Yuqoridagi maqsadni amalga oshirishda maktabgacha ta'limda STEAM texnologiyasi muhim rol o'ynaydi. STEAM ta'limi XXI asr muammolariga javob berish uchun mos yondashuv hisoblanadi. Shuni ta'kidlash joizki, ko'pgina adabiyotlarda STEAM ijodkorlik, muammolarni hal qilish, ilmiy izlanish va tanqidiy fikrlashni yaxshilash va boshqa kognitiv imtiyozlarni ta'minlash uchun mashhur pedagogik usuldir. U erta bolalik ta'limida integral ta'limga o'rgatiladi va bolalarning kundalik kuzatuvlari orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, STEAM o'rganishning ta'siri bolalarni faolroq va o'z bilimlarida tashabbus ko'rsatishga qodir bo'lishlarini muhokama qiladi.

STEAM yondashuvining o'quv samaradorligiga ta'siri shuki, amaliyot nazariy bilimlar singari muhimdir. Ya'ni, o'rganish paytida biz nafaqat miyamiz bilan, balki qo'limiz bilan ham ishlashimiz kerak. STEAM yondashuvining asosiy farqi shundaki, bolalar turli xil mavzularni muvaffaqiyatli o'rganish uchun ham miyani, ham qo'llarini ishlatadilar. Ular olgan bilimlarni o'zlari o'qib oladilar. Agar biz an'anaviy ta'limning asosiy maqsadi bilimlarni o'rgatish va bu bilimlardan fikrlash va ijod qilish uchun foydalanish deb aytsak, STEAM yondashuvi bizni olgan bilimlarni haqiqiy ko'nikmalar bilan birlashtirishga o'rgatadi [3].

Erta bolalik ta'limida STEAMni integratsiyalashgan tarzda o'rganish maqsadga muvofiq. Ilm-fan ko'pincha, e'tiborga olinmaydigan mavzudir. Biroq, yosh bolalar ko'pincha qiziquvchan, hayajonli va o'rganishga chanqoqligi bilan boshqa yosh davrlaridan ajralib turadilar. Ayni vaqtda maktabgacha ta'lim tizimida eng ko'p amalda qo'llanilgan innovatsion texnologiyalar quyidagilar:

1. Bola shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim. Bolalardagi o'zaro va tarbiyachi-pedagog bilan bo'ladigan muloqotning rivojlanishiga yordam beradi. Suhbat asosida boladagi alohida xususiyatlarni aniqlash mumkin. ("Dyu texnologiyasi". Fatsilitator ta'lim)

2. Rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyasi. Bu metod bolalarni faollikka chorlashda o'zidagi imkoniyatlarni yuzaga chiqarishiga bo'lgan intilishni kuchaytirishda samarali xizmat ko'rsatadi. Ijodiy faollikka undash bolani tashabbus ko'rsatishga, harakat qilishga undaydi. Rivojlantiruvchi muhitni tashkil qilish "Ilk qadam" davlat o'quv dasturining 6-bobida ko'rsatib o'tilgan. Maktabgacha ta'lim tashkilotida rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishda bolalarning o'ziga xos belgilarga ega bo'lgan yoshga doir xususiyatlari va ehtiyojlarini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi [3].

3. O'yinli ta'lim texnologiyasi. Ushbu metodni qo'llash jarayonida bola shaxsidagi mavjud kamchiliklarni to'g'rilashga erishiladi. Bolada o'z-o'zini anglash jarayoni yuzaga keladi.

4. Loyihalı ta'lim texnologiyasi. Asosan markazlarda faoliyat ko'rsatish jarayonida bolalar diqqatini bir nuqtaga jamlash pedagoglar uchun qiyinchilik tug'diradi. Bolalardagi taqlidchanlik xususiyati ularda taqlid ob'ektini hosil qiladi. Pedagogda oldindan tayyorlangan loyiha - ob'ekt bo'lsa, u o'zining barcha ko'rsatmalariga bolani ishontira oladi.

5. Muammoli ta'lim texnologiyasi. Integral faoliyatlarda muammoli ta'lim texnologiyalaridan unumli foydalanish imkoni mavjud. Chunki ularning mustaqil faoliyati bu yerda yetakchi o'rinda turadi. Bolalarda ushbu metodni qo'llash orqali ularning fikrlash qobiliyati mustahkamlanadi, nutqi rivojlanadi, ijodiy yondashuv malakalari shakllantiriladi. Maktabgacha ta'limga yangicha yondoshuv sifatida kirib kelgan TRIZ-(ixtirochilik masalalarini yechish nazariyasi) bu pedagogikaning bolalarni ijodiy fikrlashga o'rgatadigan alohida yo'nalishi sifatida talqin qilinmoqda. TRIZ bu kreativ, shu bilan birga produktiv fikrlashni o'stiradi. Ba'zilar doimo kreativ fikrlaydilar, yangidan-yangi takliflar beradi, ammo ularning fikrlari, g'oyalari oxiriga yetmaydi. TRIZ bilan bu g'oyalar o'nlab variantlar o'ylab ko'rish hisobiga oxiriga yetadi, natijada ajoyib nostandart ixtirolarga erishish mumkin. XXI asr butunlay o'zgacha kompetentsiyalarni talab qiladi. Chunki, biz bolalarimizni o'zimiz hali bilmaydigan kelajak hayotda yashashga o'rgatishimiz kerak. Bolalar o'zlari o'ylashi, muammolarni ko'ra olishi, nosandart vaziyatlarda nostandart yechimlarni bera olishni bilishlari kerak. Bunday sifatlarsiz yangi dunyoda yashash qiyin, mumkin emas desa ham bo'ladi. Shuning uchun ham maktab va hayot orasida katta jarlik bor. TRIZ texnologiyasi esa mana shu jarlikdan o'tish uchun ko'priklar yasashni maqsad qilgan, deyish mumkin [7].

6. Interfaol usullar. Bunday yondashuvlardan foydalanib pedagog bolalarda faollikni tarbiyalaydi. Har qanday topshiriqlarni interfaol yo'llar orqali bajarish bolani qiziquvchanligini oshiradi. Natijada bolada yangi bilimlar sistemasi hosil bo'ladi.

Xulosa o'rnida aytish joizki, bugungi kunda "Ilk qadam" davlat dasturi va ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yilgan davlat talablariga asoslanib bolaning maxsus qobiliyatini aniqlash, individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish borasida pedagoglarga tavsiyalar berilmoqda. Ammo boladagi maxsus qobiliyat ko'ringanda uni rivojlantirish borasida amaliy ishlar hali qoniqarli yo'lga qo'yilgan emas. Shu bois maqsadimiz, boladagi iste'dodni ilk yoshdan rivojlantirish orqali unda yashiringan daholikni yuzaga chiqarishdan iborat.

Ma'lumki, Ulug' bobomiz Mir Alisher Navoiy 4 yoshida g'azal bitgan. 4 yoshli bolaning g'azal yoza olish darajasiga yetishi, avvalo, u yashayotgan muhit va unga berilayotgan e'tibor natijasidir. Navoiy tavallud topib she'r va mushoira dunyosiga mehri uyg'onganini sezgan ota-onasi kichik demasdan unga murakkab g'azallar mazmunini tushunish va yod olishga o'rgatdilar. Demakki, bugungi kunda ham kelajak avlodlarimiz bilan xuddi shunday ta'lim-tarbiya muhitini yarata bilsak, yangi Navoiylar kamolga yetishiga zamin yaratamiz.

## ИҚТИБОСЛАР/СНОСКИ/REFERENCES

1. F.Vahobova, Sh.Nabixonova, G.Yo‘ldosheva, Z.Rahimova, N.Demina “Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim” trenerlar uchun qo‘llanma. Toshkent. 2009 14, 81, 82 betlar.
2. Grosheva I.B., Mirziyoyeva SH.SH., Tashmuhammedova F.B., Rustamova M.E., Madjitova H.A., Mikailova U.T., Ismailova M.A “Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim dasturlarini ishlab chiqish”. Metodik qo‘llanma, Toshkent, 2020 yil 8 bet
3. O‘ljayevna O. F. Et al. Innovatsion texnologiyalar yordamida bo‘lajak tarbiyachilarni kasbiy salohiyati samaradorligini oshirish yo‘llari //Ta’lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali. – 2023. – т. 3. – №. 3. – с. 311-315.
4. Urinova F., Azizmatova z., Fazliddinova s. Didactic foundations for forming the professional competence of the future teacher. //Евразийский журнал академических исследований. – 2023. – т. 3. – №. 4 part 4. – с. 197-202.
5. Джанпеисова Г.Е. К проблеме развития у дошкольников некоторые представления об основных элементах геометрических фигур // Образование и обучение. - Т., 2001. - № 3-6. -76-79 p.
6. Uljayevna O. R. F. Maktabgacha talim tashkiloti tarbiyachisining kasbiy pedagogik kompetensiyani takomillashtirish xususiyatlari //Science and innovation. – 2022. – т. 1. – №. B2. – с. 88-91.
7. Uljayevna F. O‘., Saydamatovna S. Z. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy faoliyatini shakllantirishning o‘quv-uslubiy ta’minoti //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. B3. – с. 349-355.
8. Urinova Feruza Uljayevna, Valiyeva Hojirakhon Ilhomjon kizi. Development of intellectual abilities of preschool children. Through developing technologies. Modern journal of social sciences and humanities. Issn: 2795-4846. Vol. 4 (2022).

ISSN: 2181-4066  
DOI Journal 10.56017/2181-4066

# ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

I-ЖИЛД, 10-СОН

## ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ-I, НОМЕР-10

## PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

VOLUME-I, ISSUE-10

«Педагогик ва психологик тадқиқотлар» электрон журнали 2022 йил 22 декабрь куни № 054834-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «IMFAKTOR Pages» масъулияти чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: [tahririyat@imfaktor.uz](mailto:tahririyat@imfaktor.uz)

Веб-сайт: [www.imfaktor.uz](http://www.imfaktor.uz)